

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI UCHUN “KELAJAK SOATI” DARSLARINING 10-MAVZUSI SSENARIYSI

Mavzu: “Xavfsiz hayot”

Dars o‘tiladigan sana: 2025-yil 3-noyabr

Ma’ruzachi: T. Yuldoshev

Annotatsiya.

Ushbu mashg‘ulot talabalarda shaxsiy xavfsizlik tushunchasini to‘g‘ri anglash va himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Mashg‘ulot jarayonida xavflarning turlari, ular sababli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar hamda xavfsizlikni mustahkamlash yo‘llari muhokama qilinadi. Real hayotiy vaziyatlar, keys-topshiriqlar va rolli o‘yinlar orqali talabalar turli ijtimoiy, o‘qish va shaxsiy munosabatlarda o‘z huquqlari va his-tuyg‘ularini himoya qilishga o‘rganadilar. Mashg‘ulot interaktiv usullarda tashkil etilib, mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil, empatiya va sog‘lom muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Darsning maqsadi: umumiy maqsad.

Talabalarda xavfsizlik va sog‘lom ijtimoiy munosabatlar uchun shaxsiy chegaralarning ahamiyati haqida aniq tasavvur hosil qilish. O‘zlari va boshqalar uchun hurmatga asoslangan muhit yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish.

KIRISH (10 daqiqa): “Hayot – bu to‘g‘ri tanlov demak” (10 daqiqa)

Assalomu alaykum, hurmatli talabalar.

Bir o‘ylab ko‘ring-chi: bugun tongda uyg‘onganingizdan beri nechta xavf bilan to‘qnash keldingiz? Balki, yo‘lni kesib o‘tayotganda quloqqa naushnik taqqandirsiz? Balki, yo‘lni svetoforga qaramay kesib o‘tgandirsiz? Yoki nonushta payti qo‘lingizda telefon, bir qo‘lda issiq choy bo‘lmaganmidi?

Ehtimol, siz bu narsalarni xavf deb o‘ylamassiz, lekin har kuni yuzlab yoshlar aynan “oddiy beparvolik” sababli hayoti tubdan o‘zgarib ketayotgani haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz?

Hozir sizlar bilan hayotimizda bizga doim hamroh xavf nuqtalari haqidagi videoni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Xavf nuqtalari. 2-qism

https://youtu.be/iMCXeQ7VMME?si=krKuD5ZHOFDQ_jp0

O‘qituvchi:

Ko‘rib turganingizdek, xavf hamma joyda bor. Undan qo‘rqish emas, hushyor bo‘lish kerak. Endi esa mana bu suratga e’tibor bering.



O‘qituvchi:

Mana shu fotoni va aynan bu voqea aks etgan videoni hammangiz ko‘rgan bo‘lsangiz kerak. Voqea sanoqli soniyalarda sodir bo‘ldi, hatto bir daqiqaga ham bormadi.

Ko‘rgan bo‘lsangiz, haydovchining avvalo yo‘l harakati qoidasini buzishi, ikkinchidan esa qaltis daqiqalarda noto‘g‘ri qaror qabul qilgani (gaz pedalini qattiq bosgani) mana shunday holatga olib keldi. Endi o‘ylab ko‘ring, shu voqeadan bir necha daqiqa oldin svetoorning qizil chirog‘ida turganida **“Chery”** haydovchisi hademay dahshatli daqiqani boshidan kechirishini bilganmidi? **“Malibu”** haydovchisi-chi? Ular ertalab uyidan chiqib ketayotganda qanday rejalar qilishgan edi-a?

Vizual kontent

Chellenj: Yo‘l qoidalariga amal qiling

https://youtu.be/SBUcB6TaeFw?si=o0h-WNwhEw_OqkOZ

O‘qituvchi:

Demak, bugun biz sizlar bilan xavflar va ularga olib boruvchi qaltis qarorlar haqida gaplashamiz. Shuningdek, xavfsizlikni ta’minlash haqida ham.

Xavf – bu faqat jarohat, yong‘in yoki toshqin emas. U ba‘zan sizga “shunchaki qiziq video”, “o‘yin”, “layk yig‘ish imkoniyati” ortidan kelishi mumkin bo‘lgan katta zarar, ba‘zan tuzatilmas mudhish xato bo‘lishi mumkin. Noto‘g‘ri qarorlar, qoidalarni mensimaslik, ularga bepisand qarash sizni asta-sekin xavfga yaqinlashtiradi.

Demak, bugungi darsda biz xavfni qanday tanish, unga qarshi qanday ehtiyot choralarini ko‘rish va eng muhimi, o‘z hayotingiz uchun mas‘uliyatni qanday his qilishni o‘rganamiz.

II. Ko‘zga ko‘rinmaydigan xavflar O‘qituvchi:

Endi, aziz talabalar, biroz boshqacharoq xavf haqida gaplashamiz – **ko‘zga ko‘rinmaydigan**, lekin ta‘siri ko‘p hollarda jismoniy xavfdan ham kuchli bo‘lgan xavflar haqida.

Bu xavflar sizni urmaydi, yiqitmaydi, lekin **ichingizga kiradi** – fikringizga, odatlaringizga, hatto orzularingizga ta‘sir qiladi.

Bugungi dunyoda bu xavflar juda ko‘p:

- **firibgarliklar** (jumladan internetdagi),
- **soxta tanlovlar va “challenge”lar,**
- **dori va tabletka orqali zavq olish** targ‘ibotlari,
- **virtual o‘yinlarga qaramlik,**
- **“trend” ortidan ko‘r-ko‘rona ergashish • onlayn qimor.**

1. Internet xavfi – “layk” ortidan quvish

O‘qituvchi:

Ko‘p kuzatyapsizlar: TikTokda, Instagramda yoki Telegramda turli “challenge”lar chiqadi. Kimdir achchiq qalampir yeydi, kimdir har xil dorilarni aralashtirib ichadi, yana kimdir tomdan sakrab “jasorat” ko‘rsatadi.

Ammo, shu “trend”lar ortidan sog‘lig‘ini, hatto hayotini yo‘qotgan yoshlar haqida ham eshitganmisizlar?

Masalan, TikTokda talabalar o‘rtasida “*The blackout challenge*” degan xavfli odat tarqaldi. Ya‘ni kimdir sherigini bo‘g‘adi yoki uning o‘zi nafas olmay turadi, toki behush yiqilmaguncha. Bunda miyaga havo yetib bormasligi natijasida kislorodga ochlik paydo bo‘ladi va miya bir necha daqiqaga “o‘chadi”. Lekin fiziologiyani yaxshi bilmaydigan yoshlar bu juda xavfli o‘yin ekani, miya bilan o‘ynashish yaxshi emasligini tushunishmaydi. Mana shu chellenj TikTokka chiqqanidan beri uning oqibatida shu paytgacha 20 ta bola o‘lganini bilasizlarmi?

(https://en.wikipedia.org/wiki/Blackout_challenge) Bu ko‘ra-bila turib o‘zini xavfga qo‘yishdir.

Savol-javob:

- Siz hech qachon “trend”ga ergashib, xavfli narsa qilganmisiz?
- Internetda ko‘rgan narsangizni baholashdan oldin, sizda “bu menga zarar keltirmaydimi?” degan fikr paydo bo‘ladimi hech?

Xulosa shuki, Internet sizning imkoniyatingiz ham, xavfingiz ham. Faqat axborotni saralash, tanlash va tahlil qilishni bilgan odamgina xavfsiz. Mavzuga doir video ko‘ramiz.

Vizual kontent

Salom! Mening ismim kiberxavf

<https://youtu.be/wLLwwv8NNhY?si=6sWCNCyNNf7E37B8>

YAKUNIY QISM “Sen o‘zingning himoyachingsan” (10 DAQIQA)

O‘qituvchi:

- Xavfsizlik – bu faqat yong‘in o‘chirgich yoki kamera emas.
- Xavfsizlik bu sizning har kuni qilgan tanlovlaringiz.
- Har safar “men bilaman” deyish o‘rinda, o‘zingizdan so‘rang: “Bu xavfli emasmi?”
- Chunki sizning hayotingiz – eng qimmat narsa. Uni himoya qilish – faqat sizning qo‘lingizda.

Endi esa ko‘pchiligingiz yaxshi taniydigan ekobloger va jamoatchilik faoli Mo‘tabar Xushvaqtova (O‘rik Guli)dan ekologik xavfsizlik haqidagi muhim tavsiyalarni eshitamiz. Ekranga qaraymiz.

Vizual kontent

“Yashil bog‘ uchun kurashganmiz” – Mo‘tabar Xushvaqtova

<https://youtu.be/VQ-er6AHh8w?si=mXovKnNrbZQVbod2>

O‘qituvchi:

Hurmatli talabalar, bugungi darsimiz yakunida sizlarga so‘z bermoqchiman,. Kelinglar, biroz savol-javob qilamiz.

1. Xavf va beparvolik orasidagi farq nima?
2. Internetdagi firibgarlikni qanday aniqlash mumkin?
3. “To‘xtang, baholang, harakat qiling” formulasi nimani anglatadi?
(3–5 daqiqa qisqa savol-javob.)

O‘qituvchi:

Hurmatli talabalar, bugungi darsimiz asosan yo‘riqnoma xarakterida bo‘ldi. O‘ylaymanki, bundan sizlarga foyda bo‘ladi. O‘zingizni ehtiyot qiling. Keyingi darsda ko‘rishguncha xayr!

Ma’rifat darsi: “Biz zo‘ravonlikka qarshimiz”

 Aniq va tabiiy fanlar fakultetida "Ma'rifat darsi" mashg‘uloti “Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” mavzusida davra suhbatini o‘tkazildi.

Talabalar jamiyatda, oilada va ta’lim muassasalarida uchrashi mumkin bo‘lgan zo‘ravonlik turlari bo‘yicha muhim ma’lumotlarga ega bo‘ldilar.

◆ Darsni “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi T. Yuldoshev olib bordi.

◆ U psixologik, jismoniy, iqtisodiy va kiber zo‘ravonlik xususiyatlari hamda ularning oqibatlarini sodda misollar bilan tushuntirdi.

◆ Shuningdek, muammo yuzaga kelganda murojaat qilish tartibi, qonuniy himoya yo‘llari va sog‘lom muloqotning ahamiyati haqida ma’lumot berdi.

💬 ✨ Mashg‘ulot yoshlarda zo‘ravonlikka muvosiis munosabat, huquqiy savodxonlik va totuvlikni qadrlash tuyg‘usini mustahkamladi.

Tadbir davomida talabalar internetdan foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik qoidalariga rioya etish bo‘yicha muhim tavsiyalar oldilar.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
rektorining 2025-yil __ _____ dagi
_____sonli buyrug'iga 4-ilova

**Sh.Rashidov binosida “Ma’rifat darslari”da ishtirok etuvchi talabalar
guruhlari va oqimlarining taqsimlanishi**

	Ta’lim yo‘nalishi	Ta’lim shakli	Kursi	Guruh raqami	Jami talabalar soni	O‘qitilayotgan smenasi	“Ma’rifat darslari” o‘tkaziladigan vaqti va joyi	Talaba-lar soni
	O‘zbek tili va adabiyoti	Kunduzgi	1	113-114-115-118-119-O`TA-25	174	1	Seshanba 1-hafta Faollar zalida soat 13-00 T.Yuldoshev	271
	Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili	Kunduzgi	3	303-304-310-FT-23	97	1		
	Xorijiy til va adabiyoti	Kunduzgi	2	204-205-206-210-211-2OT-XT-25	153	2	Seshanba 1-hafta Faollar zalida soat 12-00 T.Yuldoshev	242
	O‘zbek tili va adabiyoti	Kunduzgi	2	207-208-209-O`TA-24	89	2		